

HANAFIY MAZHABIGA DOIR MASALALARINING KLASSIFIKATSIYASI VA ULARNING FATVO BERISH TIZIMIDAGI AHAMIYATI

Abdushukurov Ahror Maxmud o'g'li

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi tayanch doktoranti,

Xoja Buxoriy o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi o'qituvchisi,

e-mail.: ahroribnmahmud9007@gmail.com

Hanafiy fiqhiga doir asarlar matnlar, sharhlar, fatvolar va boshqa shu kabi ko'rinishdagi andoza va uslublarda yozilgan. Ularning ichida mazhab imomlarining mutaqqadimlari bo'lgan Abu Hanifa va mujtahidlik maqomiga erishgan shogirdlaridan rivoyat qilingan asarlar, ulardan keying davrda yashab ijod qilgan faqihlar istinbot qilgan asarlar, mazhab ichida amal qilinadigan va dalili va manbasi quvvatli bo'lganligi hamda aytuvchi va rivoyat qiluvchisining martabasi yuqori bo'lganligi sababli boshqalaridan ustun qo'yiladigan asarlar va shuningdek nodir, zaif va mardud bo'lgan masalalarni o'zida jamlagan asarlar ham mavjud. Bayon qilinayotgan masalalar o'rtasidagi turli xillik va tavofut mavjud bo'lganligining natijasi o'laroq bir masala borasida asarlarda turli xil gaplar keltirilgan bo'lsa, ularning ichida kuchli bo'lganini zaifidan ajratib olish imkoni mavjud bo'lishi uchun hanafiy mazhabining mutaaxxir olimlari asarlarni darajalarga ajratishgan va ushbu darajalarni "tabaqa" deb nomlashgan¹.

Mahmud ibn Sulaymon Kafaviy (vaf.990/1582) "A'lam al-axyar" asarida:

"Hanafiy mazhabimizga doir masalalar uchta tabaqaga bo'linadi:

Birinchi tabaqa – asl masalalar. Ular "zohirur rivoya" masalalari deb nomlanib, imom Muhammad ibn Hasan Shayboniy² (vaf.189/804) tomonidan yozilgan "al-Mabsut"³, "al-Jomius sag'ir", "al-Jomiul kabir", "as-Siyar", "az-Ziyodot" asarlarida keltirilgan masalalardir. Shuningdek, Hokim Shahid⁴ (vaf.334/945) tomonidan ta'lif etilgan "al-Muntaqo" asari ham "zohirur rivoya" masalalaridan deb e'tiborga olinadi. Bu asar imom Muhammadning kitoblaridan so'ng hanafiy mazhabining asli hisoblanadi. Biroq ushbu asarning birorta nusxasi hozirgi kunda mavjud emas. Shuningdek, Hokim

¹ Ahmad Muhammad Nasiriddin Najib. Al-madhal al-hanafiy. – Riyoz: Maktabat ar-rushd, – B.201.

² To'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Hasan ibn Farqad Shayboniy. Abu Hanifaning yetuk shogirdlaridan biri.

³ Ushbu asarning mashhur nusxasi Abu Sulaymon Juzjoni nusxasidir. Bu asar "al-Asl" deb ham nomlanadi.

⁴ To'liq ismi Abulfazl Muhammad ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Abdulloh ibn Abdulmajid ibn Ismoilidir. Uning qalamiga mansub "al-Muntaqo" va "al-Kafiy" asarlari mavjud. Q: <https://tarajm.com/people/12457> sayti.

Shahidning “al-Kafiy” asari ham mazhabning asli hisoblanadi. Unga Saraxsiy⁵ (vaf.483/1090), Isbiyjobiy⁶ (vaf 535/1140) kabi ko’plab olimlar sharhlar yozishgan. Ikkinchi tabaqa – Zohirur rivoyadan boshqa masalalar. Bular imomlardan yuqorida zikr qilingan kitoblardan boshqasida rivoyat qilib keltirilgan masalalardir. Bunga imom Muhammadning yuqoridagi kitoblaridan boshqa “Kaysoniyyot”, “Raqqiyyot” va “Horuniyyot” kabi kitoblari yoki imom Muhammaddan boshqa imomlardan Hasan ibn Ziyodning “al-Mujarrad” asari yoki “al-Amoliy”⁷ janridagi asarlarni kiritish mumkin. Shuningdek, bu tabaqaga imom Muhammadning shogirdlaridan Ibn Samoa⁸ (vaf.233/847) kabi olimlarning aslga xilof masalalardan iborat keltirgan rivoyatlariga o’xshash tarqoq rivoyatlarni ham misol qilish mumkin. Chunki bu rivoyatlar zohirur rivoyadan boshqa bo’lib, ularga “navodir” deb yuritiladi.

Uchinchi tabaqa – fatvolar. Bu tabaqaga mansub masalalar “voqiot” deb ham nomlanadi. Bu masalalar imom Muhammadning shogirdlari va shogirdlarining shogirdlaridan to ijtihod davri tugagunga qadar yashagan mutaaxxirlar uch imomdan (Abu Hanifa, Abu Yusuf va Muhammaddan) rivoyat mavjud bo’lmagan voqealar borasida istinbot qilgan masalalardir. Bu borada yozilgan ilk asar bu “imomul hudo” nomi bilan tanilgan faqih Abu Lays Samarqandiy⁹ (vaf.373/983) qalamiga mansub “an-Navozil” asaridir. U bu asarda Muhammad ibn Muqotil Roziy (vaf.248/862), Muhammad ibn Salama (vaf.278/891) va Nasir ibn Yahyo (vaf.268/881) kabi ustozlari va ustozlarining ustozlari kabi mujtahidlik maqomidagi mutaaxxir olimlarning fatvolarini jamlagan. Undan so’ng Notifiy (vaf.446/1054) va Sodrush shahidning (vaf.536/1141) “an-Navozil” va “al-Voqot” asarlari jamlandi. Bulardan so’ng “Jomei

⁵ To’liq ismi Shamsul aimma Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Sahl Saraxsiydir. U ilmni Shamsul aimma Halavoniy va Shayxul islom Sug’diydan olgan. Uning qalamiga mansub “al-Mabsut” asari mashhur bo’lib, u bu asarni O’zjand nohiyasida zindonda bo’lgan vaqtida yozgan. Q: Karl Brokelman. Tarixul adab al-arabiy/Arab tiliga Dr. Abdulhalim Najjor tarjimasi. – Qohira/Misr: Darul maorif, (yili ko’rsatilmagan). – J.VI. – B.290.

⁶ To’liq ismi Ali ibn Muhammad ibn Ismoil ibn Ali ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Ishoq bo’lib, Shayxul islom Samarqandiy Isbiyjobiy taxallusi bilan tanilgan. Olimlarning keltirishicha o’z zamonasida Abu Hanifaning mazhabini u kabi yod olgan va bilgan olim bo’lmagan. Undan “al-Hidoya” asarining muallifi Burhoniddin Marg’inoniy fiqh ilmini o’rgangan. Q: Abulhasanot Abdulhay Laknaviy. Al-favaidul bahiyya fiy tarojimil hanafiyya. – Misr: Matba’at as-sa’adat, 1324. – B.124.

⁷ “Amoliy” so’zi “imlo” so’zining ko’plik shakli bo’lib, u bir olim atrofida shogirflari jam bo’lgan holatda o’tirishi, shogirdlari qo’liga qalam va qog’oz olib ustozlari aytayotgan masalani har bir majlisda yozib, jamlab borishidir. Bu uslub mutaaxxir olimlarning odati bo’lgan.

⁸ To’liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Samoa ibn Ubaydulloh Tamimiydir. U Lays ibn Sa’d, qozi Abu Yusuf va Muhammad ibn Hasan Shaybonidan hadis aytgan. Abu Yusuf va Muhammaddan “an-Navodir”larni rivoyat qilgan. Ba’zi olimlar uni hofiz va siqa roviylardan deb e’tirof etishgan. Q: <https://tarajm.com/people/12164>

⁹ To’liq ismi Nasr ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ibrohim Samarqandiydir. U faqih Abu Ja’far Hinduvoniyning qo’lida ta’lim olgan. Uning qalamiga mansub to’rt jildidan iborat “Bahrul ulum” nomli tafsiri, fiqh borasida bir jildli “an-Navozil”, “Tanbehu g’ofilin” va “Bo’ston” nomli asarlar mavjud. Q: Abdulqodir Qurashiy. Al-javhirul muziyya fiy tarojimil hanafiyya. – Haydarobod/Hindiston: al-Maoirifun nizomiyya, (yili ko’rsatilmagan) – J. II. –B.196.

Qozixon”, “Kitabul xulosa” va shu kabi fatvo asarlarida ushbu tabaqaga mansub masalalar jamlandi” deya keltirib o’tgan¹⁰.

Hanafiy mazhabi kibor olimlari:

“Hanafiy mazhabida mo’tabar deya e’tirof etiluvchi matnlarda kelgan gaplar sharhlarda kelgan gaplardan, sharhlarda kelgan gaplar esa fatvo kitolarida kelgan masalalardan muqaddam qilinadi. Mazhabni naql qilish uchun yozilgan matnlarda biror masala mavjud bo’lsa va sharhlarda uning xilofi mavjud bo’lsa matnda kelgan gaplar olinadi. Agar sharhlar va fatvolarda kelgan masalalar o’rtasida bir-biriga muxoliflik bo’lsa sharhlarda kelgan masalalar olinadi. Biroq quyi tabaqada ochiq-oydin sahih deya hukm berish mavjud bo’lmasligi shart qilinadi¹¹” deya keltirib o’tishgan¹².

Xulosa qilib aytganda hanafiy mazhabi bo’yicha yozilgan asarlarda bayon qilingan masalalar mazhab imomlariga tegishli bo’lgan so’zlarni o’z ichiga olganligi yoki mazhab imomlariga tegishli bo’lmagan va keyingi davr olimlari tomonidan qilingan ijtihodlar asosida aytilgan masalalar bo’lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Ahmad Muhammad Nasiriddin Najib. Al-madxal al-hanafiy. – Riyoz: Maktabat ar-rushd, – B.201.
2. Karl Brokelman. Tarixul adab al-arabiy/Arab tiliga Dr. Abdulhalim Najjor tarjimasini. – Qohira/Misr: Darul maorif, (yili ko’rsatilmagan). – J.VI. – B.290.
3. Abulhasanot Abdulhay Laknaviy. Al-favaidul bahiyya fiy tarojimil hanafiyya. – Misr: Matba’at as-sa’adat, 1324. – B.124.
4. Abdulqodir Qurashiy. Al-javhirul muziyya fiy tarojimil hanafiyya. – Haydarobod/Hindiston: al-Maoirifun nizomiyya, (yili ko’rsatilmagan) – J. II. –B.196.
5. <https://tarajm.com/people/12164 sayti>.

¹⁰ Abdulhay Laknaviy. An-nafiul kabir sharhi jamius sag’ir. – Karachi/Pokiston: Idarotul Qur’an val ulumish shar’iyya, 1990. – B.17,18.

¹¹ Ya’ni sharh yoki fatvoda هذا القول صحيح (bu gap sahih), هذا القول أصح (bu gap sahihroq), عليه الفتوى (unga fatvo), به يفتى (unga fatvo beriladi), به تأخذ (uni olamiz) va shu kabi keltirilgan masala borasidagi qavllarni ustun qilishga dalolat qiluvchi lafzlar bo’lishidir.

¹² Abdulhay Laknaviy. Umdatur rioya ala sharhil viqoya. – Bayrut/Livan: Darul kutubil ilmiyya, – J. I. – B.40.